

## QASHAQADARYO VILOYATI YAYLOV YERLARIDAN FOYDALANISH

**Yodgarova Gulnora Isroil qizi** – Qarshi davlat texnika universiteti, stajyor o‘qituvchi, E-mail: g.yodgarova2020@mail.ru

**Xolmuminov Xojiakbar Abdulazizovich** – Qarshi davlat texnika universiteti talabasi.

<sup>1,2</sup>“Qarshi davlat texnika universiteti. Qarshi sh., O‘zbekiston.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida joylashgan yaylov yerlarining holati. Maqolada yaylov yerlarini saqlab qolish, ularni meliorativ tadbirlar orqali tiklash hamda zamonaviy agrotexnik yondashuvlar asosida ulardan unumli foydalanishni tashkil etish yo‘llari asoslangan holda bayon etilgan. Ushbu tahlillar va takliflar Qashqadaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi salohiyatini oshirish, atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** resurs, ekspluatatsiya, antropogen, degradatsiya, eroziya, agrotexnik, meliorativ, GIS.

## КАШКАДАРЬИНСКАЯ ОБЛАСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПАСТБИЩНЫХ УГОДИЙ

**Аннотация.** В статье описывается состояние пастбищных угодий Кашкадарьинской области. В статье описываются пути сохранения пастбищных угодий, их восстановления путем проведения мелиоративных мероприятий и организации их продуктивного использования на основе современных агротехнических подходов. Данные анализы и предложения служат целям повышения сельскохозяйственного потенциала Кашкадарьинской области, охраны окружающей среды и устойчивого развития.

**Ключевые слова:** ресурсный, эксплуатация, антропогенный, деградация, эрозия, агротехнический, мелиорация, ГИС.

## KASHKADARYA REGION PASTURE LANDS USE

**Annotation.** This article describes the state of pasture lands in the Kashkadarya region. The article describes the ways to preserve pasture lands, restore them through

land reclamation measures, and organize their productive use based on modern agrotechnical approaches. These analyzes and proposals serve the goals of increasing the agricultural potential of the Kashkadarya region, environmental protection, and sustainable development.

**Keywords:** resource, exploitation, anthropogenic, degradation, erosion, agrotechnical, land reclamation, GIS.

**Kirish.** Qashqadaryo viloyati Respublikamizning yirik qishloq xo'jaligi hududlaridan biri hisoblanib, ayniqsa yaylov xo'jaligida muhim o'rin egallaydi. Viloyatda chorvachilikning rivojlanishi to'g'ridan – to'g'ri yaylov resurslarining mavjudligi va ularning holatiga bog'liqdir. So'nggi yillarda yaylov yerlarining sifat va miqdor jihatdan qisqarishi, ularning noto'g'ri ekspluatatsiyasi, iqlim o'zgarishlari hamda antropogen omillar ushbu resurslardan foydalanish samaradorligini keskin pasaytirmoqda.

Respublikamiz umumiy maydonining 50,93% ini yaylov va pichanzorlar tashkil qiladi, shuningdek, mavjud o'simlik resurslaridan eng ko'pi, ya'ni 1700 turi chorvachilikda yem-xashak sifatida foydalaniladi. Shuning uchun yaylov va pichanzorlarning tuproq sharoitlarini yaxshilash, mavjud o'simlik qoplamlarini turlari bo'yicha to'liqligini saqlash, hosildorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Yaylovlar deb, chorva mollarini erkin boqish uchun mo'ljallangan yerlarga aytiladi. Yaylovlar tarkibida pichanzorlar ham bo'ladi. Pichanzorlar deb, o'tlari pichan uchun o'rib olinadigan yerlarga aytiladi.

Yaylovlar 2 xil bo'ladi:

1. Tabiiy yaylovlar.
2. Madaniy yaylovlar.

Tabiiy yaylovlar deb, turli tabiiy o't qoplamlariga ega bo'lgan va chorva mollari erkin boqiladigan o'tloqlarga aytiladi.

Madaniy yaylovlar deb, maxsus ekilgan, sug'oriladigan, ishlov beriladigan va chorva mollari erkin boqiladigan sun'iy o'tloqlarga aytiladi.

Yaylov o'simliklarining ekologik-meliorativ ahamiyati

Yaylovlarda efemer, efemeroid, yarim buta va butalarning birgalikda mavjudligi tuproqning shamol va suv eroziyasidan himoya qiladi. Shuningdek, qum ko'chishini, tuproqni uchirib chang-to'zon ko'tarilishini oldini olib, atmosfera havosini ifloslanishini bartaraf qiladi.

Atmosfera yog'inlarini yerga sekin-asta singishini ta'minlab, tuproqda namlik zaxirasini vujudga keltiradi va uni fizik bug'lanishdan saqlaydi.

Sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan yerlarda ko'p yillik o'tlar, butalar va daraxtlar biologik zovur vazifasini bajarib, tuproqda sodir bo'ladigan sho'rlanish va botqoqlanish jarayonini kamaytiradi.

Markaziy Osiyo va shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining hududi yer yuzasining «yotiq» yo'nalishi bo'yicha sahro mintaqasida joylashgan (tundra, o'rmon, cho'l, sahro mintaqalari bo'yicha olinganda). Sahro mintaqasida yer yuzasiga yer yuzasining issiq, qurg'oqchil mintaqalari kiradi. Ushbu mintaqaning iqlimi keskin kontenental - yozi issiq, qishi sovuq, yog'ingarchilik miqdori 70-300 mm gacha boradi. Bug'lanish esa juda yuqori 1500-2000 mm, foydali harorat yig'indisi 3500- 4500° C gacha bo'ladi. Shu mintaqada ichida ko'p tabiiy sharoitlari bilan tubdan farq qiladigan tik kichik mintaqalar ham mavjud. Bu mintaqalar yer yuzining botiq qismidan baland tog'liklar tomon yo'nalishi bo'yicha bo'linadi: **Meliorativ mintaqalar**

1. Tog' mintaqasi.
2. Adir mintaqasi.
3. Tekislik mintaqasi.
4. Sohil mintaqasi.

Respublikamiz umumiy yer maydonining 47 % ini (21,1 mln. ga) egallagan yaylovlarning tabiiy o'simliklar qoplami bugungi kunga kelib katta xavf ostida qolgan, ularning maydoni tez sur'atlarda qisqarib bormoqda.

Respublika hududining katta qismini pichanzor va yaylovlar tashkil qiladi. Bu yerlar chorvachilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib Qashqadaryo viloyatida tuproqning degradatsiyasiga xavf solayotgan bir qancha muammolar yuzaga keldi. Jumladan, tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi, yaylovlar degradatsiyasi, tabiiy boyliklarni qazib olish natijasida ifloslanishi, sug'oriladigan yerlarda suvdan nooqilona foydalanish, sizot suvlarning sathining ko'tarilishi va tuproqlarning sho'rlanishi, eroziya jarayonining tezlashishi kabilar.

Qashqadaryo viloyati jami maydoniga nisbatan yaylovlar 1406,5 ming gani tashkil qiladi. Qashqadaryoning katta maydonlari lalmi yerlardan iborat. Hisor tog' tizmasi tog' oldi hududlarida neft va gaz zahiralarning faol darajada rivojlanayotganligi ham tuproq holatini yomonlashuviga sabab bo'lmoqda. Chorva mollarininng ko'p bo'lishi yaylovlardagi o'simlik miqdorini kamayishiga olib keladi. Bunday holat Chiroqchi va Muborak tumanlarida kuchli yuz bermoqda.

Qarshi cho'li hududiga tutash bo'lgan Muborak, Kasbi, Nishon tumanlarida mahalliy aholining cho'l yaylovlari hududidagi o'simliklarni me'yordan ortiqcha foydalanishi oqibatida cho'l yaylovlardagi biomassaga jiddiy zarar berilmoqda.

Yaylovlarning hosildorligi kamayib cho'llanish jarayonining kuchayishiga olib kelmoqda.

Ushbu muammolar so'nggi yillarda yaylovlardan foydalanish jarayonida ularning xo'jalik imkoniyatlari mutlaqo hisobga olinmaganligi, yaylovlardan almashlab foydalanishning ilmiy asoslangan tartib-qoidalari va normalariga amal qilinmaganligi oqibatida vujudga keldi deb ayta olamiz.

Yaylov hududlaridagi o'simliklar qoplaminig bunday holatga kelib qolishi xavotirli vaziyatni vujudga keltiradi. Tabiiy o'simliklar qoplaminig yo'qolib ketishi natijasida yaylovlarning iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishdagi potentsiali keskin pasayib boradi. Bu esa ushbu hududlarda ekologik vaziyatning yanada yomonlashishiga olib keladi va aholining sog'lom hayot kechirishiga katta salbiy ta'sir o'tkazadi. Yaylov inqirozi ko'laminig yil sayin ortib borishi ushbu hududda yem-xashak tanqisligining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Oqibatda mahalliy aholining asosiy daromad manbai hisoblangan chorvachilik bilan shug'ullanish imkoniyatlari keskin chegaralanadi. Shu nuqtai nazardan yaylovlar inqirozi qator ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning vujudga kelishiga olib keladi. Ushbu muammolarni hal qilish bilan bog'liq qator jihatlarni o'rganib chiqqan holda amaliyotda qo'llashimiz lozim.

Yaylovlardan foydalanishdagi muammolar haqida aytadigan bo'lsak hozirgi kunga kelib:

noto'g'ri chorvachilik siyosati: yaylov yuklamasining me'yordan oshib ketishi; resurslarni boshqarishdagi kamchiliklar: mahalliy darajada yaylovlardan foydalanish rejalarining mavjud emasligi;

ekologik muammolar: tuproq eroziyasi, o'simliklarning nobud bo'lishi, suv tanqisligi;

qonunchilikdagi bo'shliqlar: yer egaligi va foydalanish masalalarida huquqiy ziddiyatlar.

Biz yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni bartaraf etmasak Qashqadaryo viloyati yaylovlarining hozirgi holati xavotirli yanada yomonlashib boradi, ularning ekologik barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini sezilarli va zararli darajada pasayib ketadi. Davlat va mahalliy boshqaruv organlari ishtirokida yaylovlardan foydalanishning zamonaviy mexanizmlari joriy etilishi, monitoring tizimi va yerlarni tiklash choralari orqali yaylov xo'jaligi barqarorligini ta'minlash mumkin.

**Xulosa.** Qashqadaryo viloyatidagi yaylov resurslari hozirgi kunda ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, ulardan foydalanishdagi mavjud muammolar ushbu resurslarning barqarorligiga jiddiy xavf solmoqda. Yaylov yerlari so'nggi yillarda maydon jihatidan qisqarib, degradatsiyaga uchragani, o'simlik

qoplami siyraklashgani va tuproq unumdorligi pasaygani kuzatilmoqda. Bunga noto‘g‘ri ekspluatatsiya, iqlim o‘zgarishlari, yerlarning yetarli parvarish qilinmasligi kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va yaylovlardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish uchun kompleks yondashuv zarur. Xususan, yaylovlarni rotatsion usulda foydalanish, degradatsiyaga uchragan hududlarni tiklash, agrotexnik va meliorativ tadbirlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, jumladan, GIS va raqamli monitoring tizimlarini qo‘llash, infratuzilmani rivojlantirish, aholini ekologik savodxonlikka o‘rgatish va huquqiy tartibga solishni kuchaytirish orqali yaylov xo‘jaligini barqarorlashtirish mumkin.

Yaylovlardan faqat chorvachilik emas, balki boshqa tarmoqlarda – asalarichilik, dorivor o‘simliklar yig‘imi, ekoturizm yo‘nalishlarida ham foydalanish orqali ularning iqtisodiy salohiyatini oshirish lozim. Shunday chora – tadbirlar majmui viloyatda yaylov resurslaridan oqilona foydalanishni, ularning uzoq muddatli saqlanishini va qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘oziyev S.G‘. (2017). *Yerni melioratsiyalash asoslari*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Sattorov B., Yo‘ldoshev H. (2020). *O‘zbekistonning yaylov resurslari va ulardan foydalanish muammolari*. – “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” ilmiy jurnali, №2, 45–52-betlar.
3. Qashqadaryo viloyati hokimligi rasmiy sayti. (2024). *Viloyat yaylov fondi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar*. [www.qashqadaryo.uz](http://www.qashqadaryo.uz)
4. Jalilov A., Ergashev B. (2021). *Yaylovlardan foydalanish va ularni boshqarish mexanizmlari*. – “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” jurnali, №3, 61–66-betlar.
5. Norqulov U., Sheraliyev H. *Yaylovlar melioratsiyasi*. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2010.